TELEGRAM: @ABITURIYENT | AXBOROT PORTALI

1. Toshkent vohasida joylashgan, toshdan yasalgan qadimiy mehnat qurollari topilgan manzilgohni aniqlang.

A) Selung'ur B) Zamonbobo

C) Ko'lbuloq D) Sopollitepa

2. Quyidagi qaysi daryo qadimda Politimet deb atalgan?

A) Chirchiq B) Sirdaryo

C) Zarafshon D) Amudaryo

3. Surxondaryo sohasidan topilgan qadimgi shahrni aniqlang.

A) Yerqo'rg'on B) Uzunqir

C) Qiziltepa D) Afrosiyob

4. Kromanyon odami qaysi davrga mansub?

A) mezolit B) ilk paleolit

C) so'ngi paleolit D) o'rta paleolit

5. Qadimgi rim va yunon tarixchilarining yozishlaricha, saklar necha guruhga bo'lingan?

A) 5 B) 2 C) 4 D) 3

6. Kushon davlatiga oid quyidagi ma'lumotlar qaysi hukmdor davriga tegishli ekanligi to'g'ri ko'rsatilgan.

1) Kudzulla Kadfiz; 2) Kanishka; 3) Vima Kadfiz;

a) mamlakat hukmdor nomi ko'rsatilgan tanga zarb qilish boshlandi; b) davlat poyatxti Baqtriyadan Peshovarga ko'chirildi;

c) Afg'oniston va Kashmir hududlari qo'shib olindi.

A) 1-b; 2-a; 3-c B) 1-c; 2-b; 3-a

C) 1-b; 2-c; 3-a D) 1-a; 2-b; 3-c

7. Insonalr tomonidan munchoqlar, tumorlar va uzuklar yasala boshlangandan (a) va hayvonlar qo'lga o'rgatilgan (b) davrlarni aniqlang.

8. Quyidagi manzilgohlardan qaysi biri Surxondaryo vohasida joylashgan emas?

A) Jarqo'rg'on C)Teshiktosh

B) Sopillitepa D)Ko'lbuloq

9. Obishir, Qo'shilish, Machay manzilgohlari qaysi davrga oid?

A) paleolit C) eneolit

B) neolit D) mezolit

10. Zarautsoy darasidagi qoyatosh rasmlari qaysi davrga oid?

A) mezolit B) ilk paleolit

C) o'rta paleolit D) so'nggi paleolit

11. To'g'ri ma'lumotni toping.

A) Kushon davlati mil.av. II asr oxirida qudratli davlat birlashmasiga aylangan.

B) Kushon davlati milodiy I asrda vujudga kelgan.

C) Kushon davlati shaharsozlikning boshlanishi mill.avv VII asrga borib taqaladi.

D) Kushon davlatining poytaxti Ershi hisoblanadi.

12. To'g'ri ma'lumotni toping.

A) O'rta Osiyoda toshdan yasalgan qadimgi mehnat qurollari topilgan Ko'lbuloq manzilgohi Farg'ona vodiysida joylashgan.

B) Qadimgi ziroatchilar manzilgohlaridan biri bo'lgan Sopollitepa Surxon vohasida topilgan.

C) Ilk shahar alomatlari ko'zga tashlangan Jarqo'ton manzilgohi Zarafshon daryosi havzasida vujudga kelgan.

D) O'rta Osiyoda toshdan yasalgan qadimgi mehnat qurollari topilgan Selung'ur makoni Toshkent vohasida joylashgan.

13. Quyidagi qaysi dinda inson vafot etganida marhumlarning jasadini yerga ko'mish ham olovga yoqish ham, suvga tashlab yuborish ham taqiqlangan.

A) hinduiylikda B) zardushtiylikda

C) Xristianlikda D) Buddizmda

14. Boysun tog'larida topilgan o'rta paleolit davri madaniyatining jahonga mashhur yodgorligi hisoblangan manzilgohni aniqlang.

A) Selung'ur B) Ko'lbuloq

C) Jarqo'ton D) Teshiktosh

15. " Siyrat as-sultoni Jalol al-Din Mengburni"

("Sulton Jaloliddin Manguberdining tarjimayi holi") asari muallifi kim?

A) Ibn al-Asir

B) Shihobiddin ibn Ahmad an- Nasaviy

C) Mirxond

D) Alouddin Atomalik Juvayniy

16. "Sening ortingda islomning dushmani turgan sir ermas. Sen butun musulmonlarning sultonisan. Men bunday paytda senga qarshi bo'lishni istamayman. Taqdir qo'lida senga qarshi qurol bo'lishni xohlamayman. Men kabi odam seningdek insonga qarshi qilich ko'tarishi kechirilmasdir''.

Shamsuddin Eltutmish tomonidan ushbu so'zlar kimga qarata aytilgan?

A) Abu Muslimga B) Amir Temurga

C) Jaloliddin MAnguberdiga D) Boyazidga

17. 1225- yilda Jaloliddin Manguberdiga jangsiz taslim bo'lgan shahrni belgilang.

A) Marog'a B) Damashq

C) Mug'on D) Tabriz

18. Jaloliddin Manguberdi Gurjistonni qachon to'liq egallagan?

A) 1226-yilda B) 1225-yilda

C) 1224-yilda D) 1227-yilda

19. Quyidagi asarlarning tafsifi to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.

1) O'rta Osiyo xalqlari tarixi, turmushi, madaniyati urf-odatlari, adabiyotini o'rganishga eng noyob manba; 2) Islom dini axloqini tashviq qilish, komil insonni tarbiyalab yetishtirish maqsadida yozilgan asar; 3) oddiy xalq, mehnatkash insonlar alohida ehtirom bilan tasvirlangan asar;

A) 1-b, 2-c, 3-a B) 1-a, 2-b, 3-c

C) 1-c, 2-b, 3-a D) 1-b, 2-a, 3-c

20. Yevropa olimlarining Amir Temur haqidagi birinchi ilmiy tadqiqoti hisoblangan asar nomini aniqlang.

A) "Temur haqida xotimlar"

B) "Buyuk Temur"

C) "Esdaliklar"

D) "Skifiyalik Tamerlanning ulug'vorligi"

21. VII asrda Arab xalifaligining Maymurg' va Chag'aniyonga hujumlari qaysi xalifalar davrida amalga oshirilgan.?

A) Usmon va Ali

B) Usmon va Muoviya 1

C) Ali va Mansur

D) Muoviya 1 va Umar ibn Abdulaziz

22. Saljuqiylar sultoni Sanjarga qarshi o'g'uzlar isyon ko'targan va Saljuqiylar davlatiga mo'g'ullar bosqini amalga oshirilgan yillarni belgilang.

A) 1038- va 1243-yillar

B) 1153- va 1308-yillar

C) 1153- va 1243-yillar

D) 1038- va 1308-yillar

23. Qaysi davlatda xo'jayi buzruk unvoniga ega bo'lgan shaxs devonxona ishlariga ham mas'ul bo'lgan?

A) Qoraxoniylar davlatida

B) Xorazmshohlar davlatida

C) Qoraxitoylar davlatida

D) Somoniylar davlatida

ABITURIYENT AXBOROT PORTALI @ABITURIYENT

24. Quyidagilardan Turk xoqonligining markazlashgan davlatga aylanishiga imkon bermagan omillarini aniqlang?

1) katta-katta qabilalar yoki qabilalarittifoqining markaziy hokimiyatga bo'ysunmasligi;

2) xoqonlarning janubiy hududlari eftallar tomonidan egallab olinishi 3) hududlardagi hokimliklarning mustaqil bo'lishga intilishi; 4) Arab xalifaligiga hujumi;

A) 2, 4 B) 1, 4 C) 2, 3 D) 1, 3

25. Shayboniylar davrida yozilgan "Tarixi Rashidiy" asarining muallifini belgilang.

A) Kamoliddin Binoiy

B) Muhammad Haydar

C) Hofiz Tanish Buxoriy

D) Fazlulloh ibn Ro'zbexon

26. Muhammad Shayboniyxon tomonidan Turkistonga kim hokim etib tayinlangan?

A) Suyunchxo'ja Sulton

B) Jonibek Sulton

C) Ko'chkunchi Sulton

D) Mahmud Sulton

27. Shayboniyxon o'limidan so'ng taxtga kim o'tirgan?

A) ) Suyunchxo'ja Sulton

B) Ko'chkunchi Sulton

C) Ubaydullaxon

D) Abu Said

28. Ashtarxoniylar kimning naslidan bo'lgan?

A) Tuluxon B) O'qtoy

C) Chig'atoy D) Jo'jixon

29. "Boburnomada" da Shayboniyxonning ismi Shoyboqxon deb berilgan. Bu nom qanday ma'noni anglatadi?

A) g'ururli B) she'r C) toza D) kuch-qudrat

30. Sin impriyasi Sharqiy Turkistonni o'ziga bo'ysundirib, Qo'qon xonligini kuchsizlantirishga uringan yillarda Qo'qon xonligida kim hukmronlik qilgan?

A) Norbo'tabiy B) Olimxon

C) Erdonabiy D) Abdukarimbiy

31. Buxoro amirligida soliq va boshqa tushumlarni yig'ish, aholi ustidan nazorat olib boorish, ariqlardan suvni ekin maydonlariga taqsimlash masalalari qaysi amaldor zimmasida bo'lgan?

A) miroxo'r B) amin C) oqsoqol D) amlokdor

32. Ashtarxoniylar davrida xon davlat tasarrufidagi yerlarni, aholi yashaydigan qishloqlarni kimlarga suyurg'ol (a) va tanho (b) shaklida in'om qilgan?

1) harbiy qism boshliqlari; 2) yirik din ulamolari; 3) sayyidlar; 4) saroy amaldorlari; 5) shahzodalar

A) a-1,4,5; b-2,3 B) a-2,3,5; b-1,4

C) a-1,4; b-2,3,5 D) a-2,3; b-1,4,5

33. Ma'lumki Ya'qub ibn Doniyolbiy Buxoriy "Gulshan ul-muluk" nomli ikki qismli asar yozgan bo'lib, asarning ikkinchi qismida Markaziy Osiyoning qaysi davr tarixi bayon etilgan?

A) XVI –XVII asrlardagi

B) XVIII asr va XIX asr boshlaridagi

C) XVII-XVIII asrlardagi

D) XIX asrlardagi

34. Shayboniy Abdulmo'min o'ldirilgach, ichki nizolardan foydalangan qozoq xoni Tavakkal Movarounnahrga qo'shin tortib, qaysi shaharlarni egallab oldi?

A) Turkiston, Taroz, Samarqand va Buxoro

B) Samarqand, Buxoro, Kesh va Qarshi

C) Axsi, Andijon, Toshkent va Samarqand

D) O'sh, Marg'ilon, Shohruxiya va O'ratepa

35. Buxoroning qaysi amri davrida Xivaga O'rozboy Jo'ra va Avaz Murod yasovulboshi boshchiligida elchilar yuborilgan?

A) Amir Shohmurod B) Doniyolbiy otaliq

C) Amir Haydar D) Amir Nasrullo

36. Rossiya hukumati F.Benevenini Buxoroga elchi qilib yuborganda unga yana qanday vazifalar yuklatilgan edi?

1) Sharq mamlakatlariga olib boradigan suv va quruqlik yo'llarini o'rganish, rus savdosini kengaytirish; 2) Buxoro xonini Rossiya bilan ittifoq tuzishga ko'ndirish; 3) Orol dengizida Rossiya bayroqlarini ko'tarish; 4. Buxoro va undan Hindistonga boradigan yo'lni ochish

A) 3,4 B) 2,3 C) 1,4 D) 1,2

37. Marv, Nishopur va Mashhad kabi shaharlarni egallagan hukmdorni aniqlang. (XVI asr)

A) Ko'chkunchixon

B) Muhammad Shayboniyxon

C) Abu Said ibn Ko'chkunchixon

D) Abdullaxon II

38. Moskva (a) va Ost-Indiya (b) savdo kompaniyalari tashkil topgan yillarni aniqlang.

1) 1152-yil; 2) 1555-yil; 3) 1600-yil; 4) 1649-yil

A) a-2, b-3 B) a-1, b-3 C) a-1, b-4 D) a-2, b-4

39. 1806-1807-yillarda Marg'ilon hokimi bo'lgan shaxsni belgilang.

A) Xudoyorxon B) Sheralixon

C) Muhammad Alixon D) Umarxon

40. Quydagilardan 1842-1845-yillarda Qo'qon xonligini boshqargan hukmdorni toping.

A) Norbo'tabiy B) Xudoyorxon

C) Sheralixon D) Muhammad Alixon

41. Xiva xonlaridan qaysi biri xonlik poytaxtini Urganchdan Xivaga ko'chirgan?

A) Sherg'ozixon B) Abulg'oziyxon

C) Elbarsxon D) Muhammad Alixon

42. XVII asrda qaysi ashtarxoniy davrida Xiva xonlarining Buxoro xonligiga hujumlari kuchaygan?

A) Nodir Muhammad B) Abulfayzxon

C) Imomqulixon D) Arab Muhammadxon

43. Xiva xonligini boshqaran qo'ng'irotlar sulolasining quyidagi hukmdorlari hukmronlik yillariga qarab to'g'ri xrononologik ketma-ketlikda berilgan javobni toping.

1) Muhammad Rahimxon I; 2) Eltuzar; 3) Muhammad Aminxon; 4) Olloqulixon; 5) Muhammad Rahimxon II

A) 2,1,4,3,5 B) 2,3,1,5,4 C) 1,2,3,4,5 D) 2,1,3,4,5

44. Rossiya imperiyasi Xiva bilan munosabatlarini harbiy kuch bilan tartibga solish maqsadida, 1839-yilda yangi harbiy eskpeditsiya jo'natdi. Uning ixtiyorida 4 ming piyoda askar, 12 ta to'p va yuk ortilgan o'n ming tuya bore di. Biroq Ustyurtning qattiq sovugi, oziq-ovqat va yem xashakning yetishmasligi oqibatida ekspeditsiya talofot ko'rdi. Oqibatda orqaga qaytishga majbur bo'ldi. Bu ma'lumot qaysi ekspeditsiya haqida ekanligini aniqlang.

A) V.Perovskiy B) A.Bekovich-Cherkasskiy

C) N.Murayyov D) G.Danillevskiy

45. Rossiya imperiyasi yerlik aholiga o'z ta'sirini kuchaytirish uchun 1866-yil Toshkentda joriy qilingan tartibiga mahalliy aholi vakillaridan kimlarni saylagan?

A) qozi va 5 nafar a'lam

B) devonbegi va 6 nafar a'alm

C) imom va 5 nafar a'lam

D) qozi va 7 nafar a'lam

46. Podsho Rossiyasi quydagi qaysi shaharlarni bosib olgach, Yangi Qo'qon chizig'I asosida qo'lga kiritilgan qal'alarni birlashtirgan?

A) Chimkent B) O'ratepa

C) Samarqand D) Turkiston

47. Andijonda Dukchi Eshon qo'zg'oloni ko'tarilgan paytda Rossiya imperiyasining harbiy vaziri kim edi?

A) A.Rozenbax B) A.Girs

C) P.Stolipin D) A.Kuropatkin

48. 1842-yilda Buxoro amiri tomonidan qatl etilgan Ch.Stoddart va A.Konnoli Buxoroga qanday taklif bilan kelgan edilar?

A) O'rta Osiya davlatlariga harbiy sohada yordam berish va ular bilan Rossiya imperiyasiga qarshi ittifoq tuzish

B) ingliz harbiy mutaxassislarini Buxoroga yuborish, savdo-iqtisodiy aloqalarni yo'lga qo'yish

C) Amudaryoning janubiy sohilidagi o'zbeklar va tojiklar hududda ingliz harbiy istehkomini qurish

D) Sirdaryo sohillarida harbiy istehkomlar qurish, ularning qurilishiga ingliz muhandislarini jalb qilish

49. Quydagilardan qaysi biri Buxoro va Rossiya o'rtasida 1868-yilda tuzilgan shartnoma shartlariga kirmaydi?

A) Xo'jand, O'ratepa, Panjikent, Jizzax, Samarqand, Kattaqo'rg'on shaharlari Rossiyaga o'tdi.

B) Urgutdan Zirabuloqqacha bo'lgan hudud Rossiya imperiyasiga kirdi.

C) Amir urush harajatlarini qoplash uchun 500 ming rubl to'lash majburiyatini oldi.

D) Buxoroda ruslarning savdo boji umumiy qismatning 2,5 foizdan oshmasligi belgilab qo'yildi.

50. XIX asrda qaysi voqeadan so'ng Rossiya va Eron o'rtasida chegaralar belgilangan?

A) Sharqiy Turkistonning Ili o'lkasidagi qo'zg'olon bostirilgach

B) Sirdaryo viloyati tuzilgach

C) Qo'qon xonligi tugatilgach

D) turkmanlarning asosiy qal'asi – Go'ktepa bo'ysundirilgandan keyin

51. 1917-yil Buxoro amiri islohotlar to'g'risida farmon e'lon qilganida uni vazmin, bosiqlik bilan kutib olgan "Yosh buxorolik" vakillarni belgilang.

A) Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Usmon Xo'ja

B) Fayzullo Xo'jayev, Abdurauf Fitrat, Usmon Xo'ja

C) Maxmudxo'ja Behbudiy, Mullaxon o'g'li Mirzo G'ulom

D) Maxmudxo'ja Behbudiy, Fayzulla Xo'jayev, Abdurauf Fitrat

52. Rossiya imperiyasi qo'shinlari tomonidan Xo'jand, O'ratepa, Jizzax shahrlari egallangan yilda Orenburg general-gubernatori lavozimida ishalyotgan shaxsni aniqlang.

A) K.fon.Kaufman B) V.Perovskiy

C) F.Romamovskiy D) N.Krijanovskiy

53. XIX asr o'rtalarida O'sh, Pishpak va O'zgan qaysi davlat tasarrufida bo'lgan?

A) Xiva xonligi B) Qozoq julari

C) Qo'qon xonligi D) Buxoro amirligi

54. XIX asr o'rtalarida Buxoro amirligi chegaralari to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.

1) g'arbda; 2) sharqda; 3) janubda;

a) Pomir tog'lari; b) Amudaryoning chap qirg'og'I; c) Xiva xonligi

A) 1-c; 2-a; 3-b B) 1-a; 2-c; 3-b

C) 1-b; 2-c; 3-a D) 1-b; 2-a; 3-c

55. Quydagilardan "Yosh xivaliklar" harakati rahbarlarini belgilang.

1) Bekjon Rahmonov; 2) Sadriddin Ayniy; 3) Abdurauf Fitrat; 4) Nazir Sholikorov; 5) Jumaniyoz Sultonmurodov

A) 2,3,5 B) 1,3,5 C) 2,3,4 D) 1,4,5

56. Quydagi qaysi voqealar imperator Aleksandr II hukmronligi davrida bo'lib o'tgan?

1) Baljuvonda Vose boshchiligida qqo'zg'alon ko'tarildi; 2) Mingtepada Yetimxon boshchiligida qo'zg'alon bo'lib o'tdi; 3) turkmanlarga Lazarev boshchiligida qo'shin yuborildi; 4) yangi "Turkiston o'lkasini idora qilish to'g'risidagi Nizom" tasdiqlandi; 5) Toshkent ruslar tomonidan bosib olindi

A) 2,3,5 B) 1,3,4 C) 2,3,4 D) 3,4,5

57. Qo'qon xonligida XIX asr 50-60-yillarida xalq ommasining norozilligiga nimalar sabab bo'lgan?

1) Rossiya bilan urush natijasida ko'rilgan zararlar xalq ommasining zimmasiga tushishi; 2) Xudoyorxonning Makkaga ketishi; 3) soliq va majburiyatlarning oshirilishi; 4) Farg'ona viloyatining tashkil etilishi; 4) Andijon uchun jangda xonlik qo'shinlari mag'lubiyatga uchrashi

A) 2,4 B) 1,5 C) 1,3 D) 2,3

58. XIX asr 70-yillarida Turkiston tarixida sodir bo'lgan voqealarni aniqlang.

1) Avliyootada birinchi rus qishlog'i paydo bo'ldi. 2) Jizzax qo'zg'aloni bo'lib o'tdi. 3) Gandiyiyon shartnomasi imzolandi. 4) Ilk o'zbek milliy gazetasi – "Taraqqiy" nashr etildi. 5) Mingtepada Yetimxon boshchiligidagi qo'zg'olon ko'tarildi. 6) Andijon uchun jangda xonlik qo'shinlarining mag'lubiyatga uchrashi

59. Yangi Bobil va Misr Ahamoniylar davlati tarkibiga kirgan yillarni belgilang. (Savol tuzilishida aniqlik yetishyaydi ya'ni kamchiliklar mavjud xulosani yakunda keltiraman)

A) mil.av. 558- va mil.av, 539-yillar

B) mil.av. 539- va mil.av, 522-yillar

C) mil.av. 558- va mil.av, 539-yillar

D) mil.av. 558- va mil.av, 539-yillar

60. Qaysi hudud Rim va Karfagen o'rtasida urush boshlaniga sabab bo'lgan?

A) Sardiniya B) Sitsiliya

C) Ispaniya D) Korsika

61. Qadimda hukmronlik qilgan davlatlardan qaysilari ko'chmanchi qabilalar hujumidan parchalanib ketgan?

A) Shumer- Akkad va Yunon-Baqtriya davlatlari

B) Shumer-Akkat va Ossuriya davlatlari

C) Yangi Bobil va Ossuriya davlatlari

D) Yangi Bobil va Yunon-Baqtriya davlatlari

62. Misrni Yangi Bobil podsholigiga qoshib olib, Iyerusalim (Quddus) ni vayron qilib tashlagan hukdorni aniqlang.

A) Navuxodonosor II B) Sargon I

C) Xammurapi D) Kiaksar

63. To'g'ri ma'lumotni toping. (Savol tuzilishida aniqlik yetishyaydi ya'ni kamchiliklar mavjud xulosani yakunda keltiraman)

A) Mil.av. 449-yilda Ahamoniylar davlatining hukmronligi tugatilgan.

B) Fors podshosi Kir II Lidiya va Bobilni zabt etgan.

C) Kambiz II O'rta Osiyoni bosib olishga harakat qilgan dastlabki Fors podshosi hisoblangan.

D) Mil.a. 530-yilda Doro I hukmronligi boshlandi

64. Qadimgi Hindiston bilan bog'liq to'g'ri ma'lumotni toping.

A) Mauriya davlatiga sarkarda Ashoka asos slogan

B) Mil.av. VII-VI asrlarda Malla, Koshala, Magadha davlatlari vujudga kelgan

C) Mil.av. VI asrda Chandragupta budaviylik diniga asos slogan

D) Mil.av. III asrda Sidhartha Gautama davrida Mauriya davlati yuksak pog'onaga ko'tarildi

65. Enolit davridan boshlab . . .

1) O'rta Osiyo janubida su'niy suvg'orma dehqonchilik vujudga keldi; 2) xom g'ishtdan ko'p xonali uylar qurila boshlandi; 3) kulolchilik charxi va g'ildiraki kashf etildi; 4) kulolchilik xumdonlaridan foydalana boshlandi; 5) Jarqo'ton manzilgohi yuksak tarqaqqiyotga erishdi

A) 1,4,5 B) 1,3,5 C) 1,2,4 D) 2,3,4

66. Quydagilar bir yilda sodir voqealarni anqilang.

1) Xitoyda Sin Shixuandi hukmronligi boshlandi; 2) Parfiya Salavkiylar davlati tarkibidan ajralib chiqdi; 3) Kann yaqinida Rim armiyasi tor-mor qilindi; 4) Yunon-Baqtriya davlati tashkil topdi; 5) Xitoyda Lyu Ban qo'zg'aloni boshlandi

A) 4,5 B) 1,2 C) 2,4 D) 1,3

67. Afina startegi Periklning hukmronlik yillari to'g'ri berilgan javobni aniqlang.

A) mil.av. 447-433-yillar

B) mil.av. 443-429 –yillar

C) mil.av. 453-439-yillar

D) mil.av. 441-431-yillar

68. Qadimgi Xitoy sulolasi (davlat)larning hukmronlik davriga qarab to'g'ri xranologik ketma-ketlikda berilgan javobni aniqlang.

1) Sin; 2) Shan; 3) Chjou; 4) Xan

A) 3,2,1,4 B) 2,3,1,4 C) 1,4,2,3 D) 3,1,4,2

69. Insoniyatning qadimgi tarixini o'rganuchi quydagi olimlar nimalarni o'rganishi to'g'ri moslab ko'rsatilgan javobni belgilang.

1) antropologlar; 2) arxeologlar; 3) etnograflar;

a) qadim zomonlarda odamlar yashagan manzilgohlarda qarishma ishlarini olib boradilar; b) qadimgi odamlarning suyak qoldiqlarini tekshirib, ularning tashqi qiyofasini tiklaydilar va rivojlanishini o'rganadilar; c) qadimgi odaarning ko'pgina udumlari, hozirda mavjud qabilalar va elatlarning qadimdan saqlanib qolgan xo'jalik va madaniyat an'analarini o'rganadilar

A) 1-b; 2-c; 3-a B) 1-b; 2-a; 3-c

C) 1-a; 2-b; 3-c D) 1-c; 2-a; 3-b

70. Doro I va Kserkisning yuz ustunli zali bo'lgan saroyi qayerda qurilgan?

A) Persopolda B) Ekbatanda

C) Bobilda D) Suzada

71. Quydagi yillarda yuz bergan tarixiy voqealarni aniqlang.

1) mil.av. 509-yil; 2) 395-yil; 3) mil.av. 29-yil; 4) 476-yil;

a) G'arbiy Rim imperiyasining qulashi; b) Oktavianning Rim imperatori deb e'lon qilinishi; c) Rimning ikkiga bo'linib ketishi; d) Rim Respublika deb e'lon qilinishi

A) 1-d; 2-c; 3-b; 4-a B) 1-a; 2-b; 3-d; 4-c

C) 1-b; 2-d; 3-c; 4-a D) 1-c; 2-d; 3-a; 4-b

72. "Ziroatchilik qonunlari" qachon va qayerda yaratilgan?

A) Xasrda Somoniylar davlatida

B) IX asrda Tohiriylar davlatida

C) VI asrda Vizantiyada

D) VII asrda Vizantiyada

73. Fransiya va Angliya o'rtasida yuz bergan yiz yillik urush davrida bo'lib o'tgan quydagi jangler ketma-ketligi to'g'ri berilgan javobni aniqlang.

1) Azenkur jangi; 2) Kresi jangi; 3) Puate yaqnidagi jang 4) Kompen qal'asi uchun jang

A) 1,4,3,2 B) 2,3,1,4 C) 1,4,2,3 D) 2,4,3,1

74. Quydagi fransuz qirollarining faoliyati bilan bog'liq ma'lumotlar to'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang.

1) Lyudovik IX; 2) Karl V; 3) Filipp IV; 4) Karl VII

a) yagona qo'mondonlik joriy etilb uning vakolatlari kengaytirildi; b) mamlakatning markazlashuvi

nihoyasiga yetdi; c) so'ngi salb yurishlari amalga oshirdi; d) ilk bor General shtatlar chaqirildi.

A) 1-c, 2-d, 3-a, 4-b B) 1-c, 2-a, 3-d, 4-b

C) 1-a, 2-c, 3-d, 4-b D) 1-a, 2-b, 3-c, 4-d

75. VII asrda quydagi qaysi malakatda hukmdorlar saroyida olimlarning oliy yig'inlari tashkil etilib, keyinchalik akademiya nomini olgan?

A) Xitoy B) Koreya C) Hindiston D) Yaponiya

76. Quyidagi jangler bo'lib o'tgan yillari bo'yicha to'g'ri xronologik tartibda joylashtirilgan javoblarni belgilang.

1) Qunduzcha jangi; 2) "Loy jangi" 3) Tarak jangi.

A) 2,3,1 B) 2,1,3 C) 3,2,1 D) 1,2,3

77. 732-yilda Puate jangida qaysi davlat o'shinlari to'qnashgan?

A) Muqaddas Rim imperiyasi va Vizantiya

B) Arab Xalifaligi va Vestgot qirolligi

C) Arab xalifaligi va Franklar davlati

D) Angliya va Fransiya

78. O'rta asrlarda Angliya va Fransiya o'rtasidagi "Yuz yillik urush"ninf tugashi qaysi fransuz qiroli davriga to'g'ri keladi?

A) Lyudovik IX B) Lyudovik XI

C) Karl VII D) Karl V

79. IV-V asrlarda germanlarning eng yirik qabilalri nomi keltirilgan javobni aniqlang.

A) alemann, got, frank

B) vandal, burgundy, frank

C) aleman, got, vandal

D) saks, angl, yut

80. Xalqlarning Buyuk ko'chishi boshlanishiga qadar german qabilalariga mansub franklar asosan qayerda yashaganlar?

A) Elba daryosing quyi oqimidagi hududda

B) Visla daryosining o'rta oqimidagi hududda

C) Reyn daryosining quyi oqimidagi hududda

D) Dunay daryosining o'rta va quyi oqimidagi hududda

81. To'rtinchi salb yurishida salibchilar Venetsiyaning savdosidagi asosiy raqibi bo'lgan qaysi davlatga qarshi urush boshlashga majbur bo'lganlar?

A) Misrga B) Arabistonga

C) Gretsiyaga D) Vizantiyaga

82. Yevropa manbalari asosida bitilgan ko'p jildli "Sayohatnoma" asari muallifini belgilang.

A) Mulla Mahmud B) Xoja Sinon

C) Evliya Chalabiy D) Xoja Xalifa

83. Moskva knyazi Dmitriy Ivanovich 1378-yilda qayerda qayerda mo'g'ullar ustidan g'alabaga erishdi?

A) Don daryosi bo'yida

B) Kulikova maydonida

C) Voje daryosi bo'yida

D) Chud ko'li atrofida

84. Innakentiy III nechanchi salib yurishining tashkilotchisi hisoblanadi?

A) beshinchi B) birinchi

C) to'rtinchi D) ikkinchi

85. Goteka memorchiligidagi kerkovlarda derazalarga oddiy oynalar o'rniga tiniq rangli shishalardan yasalgan surat yoki bezaklar solingan. Ular qanday atalgan?

A) panno B) vitraj C) freska D) minatura

86. Quyida berilganlardan O'rta asrlarda Afrika xalqlari madaniyati bilan bo'gliq bo'lganlarini aniqlang.

1. Chichen Itsada rasadxona qurilgan; 2) Aksumda IV asrda mahalliy yozuv islohoti o'tkazildi; 3)

Tenochtitlanda maktablar ochildi; 4) Tombuktu madrasasi faoliyat yuritgan; 5) Benindagi shoh saroyi podsho va hayvonlarning jezdan ishlangan bo'rtama rasmlari rasmlari bilan bezatilgan; 6) Kipu – tugunli xat mavjud bo'lgan

A) 1,3,6 B) 3,5,6 C) 1,2,4 D) 2,4,5

87. XVII asrning ikkinchi yarmida qaysi davlatlar Germaniyaga dushmanlik kayfiyati bilan qaragan?

A) Italiya, Avstriya, Rossiya

B) Angliya, Fransiya, Ispaniya

C) Avstriya, Daniya, Gollandiya

D) Shvetsiya, Turkiya, Fransiya

88. Yuqori Peru mustaqillikka erishgunga qadar qaysi davlat mustamlakasi edi?

A) Fransiya B) Portugaliya

C) Buyuk Britaniya D) Ispaniya

89. Qaysi savdo kompaniyasi Hindistonda Boburiy hukmdorlariga boj to'lamay savdo qilish huqusini qo'lga kiritgan.

A) "Vest-Indiya" kompaniyasi

B) "Moskva" kompaniyasi

C) "Levantiy" kompaniyasi

D) "Ost-Indiya" kompaniyasi

90. Fransiyada diniy urushning boshlanishiga qaysi voqea voqea turtki bo'lgan?

A) islohotlarni o'tkazish to'g'risida qirol farmonining e'lon qilinishi

B) qirol Karl IX ning gugenotlar yetakchisi Genrixga singlisi Margaritani turmushga berishi

C) Nant ediktining qabul qilinishi

D) Fransua Giz ko'p sonli qo'riqchilari bilan ibodat qilayotgan protestantlarga hujum uyushtirishi

91. Fransuz burjua inqilobi davrida mamlaktda yuz bergan voqealar to'g'ri ketma-ketlikda ko'rsatilgan javobni toping. (Savol tuzilishida aniqlik yetishyaydi ya'ni kamchiliklar mavjud xulosani yakunda keltiraman)

1) Fransiya tarixida birinchi marta konstitutsiya qabul qlindi; 2) Lyudovik XVI General shtatlarni chaqirdi; 3) Fransiya Respublika deb e'lon qilindi; 4) M.Robespyer hokimiyati ag'darildi

A) 2,1,3,4 B) 1,2,3,4 C) 2,3,1,4 D) 1,3,2,4

92. Qaysi davrga kelib Buyuk Britaniya qishloq xo'jaligida mashinalar va kimyoviy o'g'itlardan foydalanish boshlandi?

A) XIX asr 40-yillariga klib

B) XIX asr 70-yillariga kelib

C) XIX asr boshlariga kelib

D) XIX asr oxiriga kelib

93. Yevropada kelgusida ro'y berishi mumkin bo'lgan inqiloblarga qarshi kurashish maqsadida tuzilgan "Muqaddas ittifoq"qa kirmagan davlatni aniqlang.

A) Prusiya B) Rosiya

C) Avstriya D) Buyuk Britaniya

94. 1926-yilda Bobur Mirzo bilan Ibrohim Lodiy o'rtasidagi jangda bo'lib o'tgan?

A) Panipat yaqinida B) Amritsatda

C) Dehli yaqinida D) Pataliputrada

95. XIX asr boshlarida XIX asr 70-yillarigacha bo'lgan davrda Buyuk Britaniya tarixida bo'lgan voqealarni belgilang.

1) Xitoy bilan Afyun urushlari bo'lib o'tdi; 2) O.Kromvel o'zining shaxsiy diktaturasini o'rnatdi; 3) sanoat to'ntarilishi tugatildi; 4) respublika boshqaruvi joriy etildi; 5) fuqarolar urushi bo'lib o'tdi; 6. Chartislar harakati vujudga keldi

A) 1,2,3 B) 4,5,6 C) 1,3,6 D) 2,4,5

96. Eronda amaldorlarga xizmat vazifasini bajarish muddatiga yo shoh oldidagi alohida xizmati uchun vaqtincha yoki umrbod muddatga beriladigan yer-mulk qanday atalgan?

TELEGRAM: @ABITURIYENT I AXBOROT PORTALI

A) jogir B) suyurg'ol C) grass D) tiyul

97. Samoderjaviya, krepostnoylik huquqini yo'q qilish va Rossiyada respublika idora usulini joriy etish ko'zda tutilgan "Rus haqiqati" kostitutsiyasi loyihasi kim tomonidan yaratilgan?

A) Shimoliy jamiyat rahbari N.Muravyov

B) Rossiya imperatori Nikolay I

C) Janubiy jamiyatning ko'zga ko'ringan arbobi P.Pestel

D) Rossiya imperatori Aleksandr II

98. Quydagi Safaviy hukmdorlaridan qaysi biri mamlakatda muntazam qo'shin tuzgan?

A) Ismoil I B) Abbos I

C) Nodirshoh D) Taxmasp II

99. Xitoyda Xun Syuanyuan boshchiligidagi dehqonlar qo'zg'oloni bo'lgan yillarni aniqlang.

A) 1850-1864-yillar B) 1860-1874-yillar

C) 1854-1860-yillar D) 1840-1854-yillar

100. XIX asrning 40-yllarida Buyuk Britaniya qaysi davlatlar bilan urush olib brogan?

A) Rossiya va Fransiya B) Afg'oniston va Xitoy

C) Hindiston va Eron D) Turkiya va Yaponiya

101. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Germaniyaning qaysi davlatga bo'lgan da'vosi Fransiya bilan munosabatlarning yanada yomonlashuviga sabab bo'ldi?

A) Marokashga B) Liviyaga

C) Kamerunga D) Tunisga

102. Irlandiyada nechanchi yilda "Shinfeyn" ("Biz o'zimiz") partiyasi tuzilgan?

A) 1906-yilda B) 1907-yilda

C) 1908-yilda D) 1905-yilda

103. 1885-yilda Hindiston Milliy Kongresi qaysi shaharda tashkil topgan?

A) Madras D) Dehli C) Kalkutta D) Bombey

104. Misrdagi "Xizb ul-Vatan" partiyasining gazetasi qanday nomlangan.

A) "AL-Liva" B) "Al-Ansor"

C) "Al-Arab" D) "Al-Vatan"

105. Germaniya va Avstriya-Vengriya 1915-yilda Rossiyaga qarshi urush harakatlarini boshlagan Galitsiya qaysi hududda joylashgan?

A) Janubiy Belorusiyada B) Moldaviyada

C) Sharqiy Polshada D) G'arbiy Ukraniyada

106. 1895-yilda qaysi shaharda "Ishchilar sinfini ozod qilish uchun kurash ittifoqi" tuzilgan?

A) Kiyevda B) Rigada

C) Peterburgda D) Moskvada

107. Buyuk Britaniyada Leyboristlar partiyasi kimlar tomonidan tuzilgan?

A) ingliz cherkovi B) katta yer egalari

C) tred-yunianlar D) anarxistlar harakati

108. 1896-yil Madakaskar qaysi davlat mustamlakasi deb elon qilindi?

A) AQSH B) Portugaliya

C) Buyuk Britaniya D) Fransiya

109. 1867-yilda Avstriya-Vengriyada va 1876-yilda Turkiyada konstitutsiya qabul qilingan vaqtda bu davlatlarni boshqarayotgan shaxslarni aniqlang.

A) Frans Ferdinan, Abdulaziz

B) Frans Ferdinand, Abdulhamid II

C) Frans Iosif II, Abdulhamid II

D) Frans Iosif II, Mahmud V Rishod

110. Irqiy ayirmachilik va milliy nizoni avj oldirishga urinuvchi o'ta ketgan millatchilik qanday atama bilan nomlanadi?

A) separatism B) eksluatatsiya

C) shovinizm D) anarxizm

111. Hukumatning juda muhim voqea munosabati bilan xalqqa qilgan yozma murojaati nima deb atalgan?

A) memorandum B) manifest

C) traktat D) nota

112. AQSHda kimning prezidentligi davrida bojxona tariflari to'g'risida yangi qonun qabul qilindi?

A) U.Makkinli B) S.Klivlend

C) T.Ruzvelt D) V.Vilson

113. Suvaysh va Panama kanallari ishga tushirilgan yillarni belgilang.

A) 1869-yil va 1914-yil B) 1875-yil va 1911-yil

C) 1875-yil va 1914-yil D) 1869-yil va 1911-yil

114. Buyuk Britaniya XIX asr moboynida qo'lga kiritgan orollarni belgilang.

A) Krit va Madagaskar orollari

B) Seylon va Kipr orollari

C) Seylon va Madagaskar orollari

D) Krit va Samoa orollari

115. Quyidagi monopoliyalar qaysi davlatlarda tashkil topganligi to'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang.

1) Reyn-Vestfaliya sindikati; 2) "Med" jamiyati; 3) "Fiat" aksiyadorlik jamiyati; 4) "Po'lat korporatsiyasi" tresti;

a) Italiya; b) AQSH c) Germaniya d) Rossiya.

A) 1-c, 2-d, 3-a, 4-b B) 1-d, 2-b, 3-b, 4-c

C) 1-d, 2-c, 3-b, 4-a D) 1-c, 2-b, 3-a, 4-d

116. Fransiyada Uchunchi Respublika Kostitutsiyasiga ko'ra, president vakolatlari to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.

1) vazirlarni tayinlash; 2) Senat a'zolarini tayinlash; 3) Respublika nomidan tashqi siyosat yuritish; 4) Parlamentga boshchilik qilish; 5) urush e'lon qilish va sulh tuzish; 6) umimiy avf e'lon qilish

A) 2,3,4,6 B) 1,4,5,6 C) 1,3,5,6 D) 2,4,5,6

117. Turkiya sultonlik davrida (a) va respublika davrida (b) o'zini bankrot deb e'lon qilgan yillarni toping.

1) 1873-yil; 2) 1876-yil; 3) 1918-yil; 4) 1956-yil; 5) 1958-yil; 6) 1988-yil

A) a-3, b-6 B) a-2, b-4 C) a-2, b-5 D) a-1, b-4

118. Yaponiya va Xitoy o'rtasida Simonoseki shartnomasi imzolangan yilda Kuba tarixida bo'lib o'tgan voqeani aniqlang.

A) AQSH Kubaga majburan shartnoma qabul qildirdi.

B) Xose Marti va Maksimo Gomes boshchiligida Kuba xalqi ispanlarga qarshi qo'zg'alon ko'tardi.

C) Kubada qulchilik bekor qilindi.

D) Kuba mustaqil deb e'lon qilindi.

119. Quydagi voqealar to'g'ri xronologik ketma-ketlikda ko'rsatilgan javobni aniqlang.

1) Rossiya va Italiya o'rtasida Bolqon yarimorolidagi o'z manfatlarini quvvatlovchi bitim imzoladi; 2) Italiya Fransiyaning Marakashga bo'lgan huquqlarini tan oldi; 3) Milanda 5 kunlik barrikada janglariga aylanib ketgan umumiy ish tashlash yuz berdi; 4) Italiya sotsialisttik partiyasi tuzildi

A) 4,2,3,1 B) 1,3,4,2 C) 4,3,2,1 D) 3,4,1,2

120. Ma'lumki, Turkiyada ruhoniylarning "Ittihodi Muhammadi" partiyasi tarafdori bo'lgan harbiylar 1909-yil 13-aprelda isyon ko'tardilar. Isyonchilar sultonga qanday talab qo'ygan edilar?

1) parlamentni bekor qilish; 2) konstitutsiyani bekor qilish; 3) shariatni tiklash; 4) sulton hokimiyatini tiklash; 5) konstitutsiyani qayta tiklash

A) 2,3,4 B) 1,3,4 C) 1,3,5 D) 1,4,5